IJRO HUIJATLARINI MAJBURIY IJRO ETISH TIZIMINI RAQAMLASHTIRISH: O'ZBEKISTON TAJRIBASI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI.....	1602
Matmuratova Nasiba Azatovna	
IJRO HUIJATLARI TALABLARINI BAJARISHDAN BO'YIN TOVLAGANLIK UCHUN JAVOBGARLIKNI SODDALASHTIRISH MASALALARI	1607
Axmedov Zafarjon Zokirjon	
AHOLINI IJTIMOYIY TA'MINOT TIZIMINING TAMOYILLARI VA UNING MOLIYAVIY MEXANIZMLARI	1611
Xusanov Baxodir Sheraliyevich	
BEYOND GREEN: THE ECONOMIC IMPACT OF ELECTRIC URBAN TRANSPORT INFRASTRUCTURE	1615
Khannarov Komiljon Karimovich, Shukurillaev Nizomiddin Akmaljon ugli	
TIJORAT BANKLARIDA KREDITLARNING QAYTMASLIGI (NPL) VA LIKVIDLIK: PUL OQIMLARIDAGI UZILISHLAR TAHLILI	1621
Sulaymanov Samandarboy Adhambek o'g'li	
KREATIV SANOAT VA TURIZM INTEGRATSIYASI: ZAMONAVIY SHAHARLAR IQTISODIY MODELIDAGI YANGI YONDASHUV	1628
Raxmonova Nilufar Yorqinovna	
TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN ALOQA SOHASINI MOLIYALASHTIRISHNING O'ZIGA XOS JIHATLARI	1632
M.O.Yuldoshova	
ESG TAMOYILLARI ASOSIDA SANOAT SEKTORIGA "YASHIL" INVESTITSIYALARNI JALB ETISH VA BOSHQARISH YO'LLARI.....	1636
Ibragimov Zaxid Taxirovich	
ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ РЫНКА ВИРТУАЛЬНЫХ АКТИВОВ И ИХ ВЛИЯНИЕ НА ФИНАНСОВУЮ СИСТЕМУ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН.....	1644
Xatamov Azizjon Abdumajitovich, Abduraupov Rустам Ramzovich	
AVTOMOBIL SANOATIDA BRENД STRATEGIYASINI RAQAMLI MARKETING VOSITALARI ORQALI RIVOJLANTIRISH.....	1650
Boboyev L. Kadrxo'ja Djuraxodjayeich	
QURILISH KORXONALARI FAOLIYAT SAMARADORLIGINI BAHOLASHDA BOSHQARUV TAHLILINING ZARURATI.....	1657
Yahyoyev To'liqin Ismatulla o'g'li	



O'ZBEKISTONDA SUG'URTA KOMPANIYALARINING RIVOJLANISH DINAMIKASI TAHLILI	1661
Nosirov Jasur Tursunpulotovich	
O'ZBEKISTONDA YASHIL ENERGIYA SIYOSATINING IQTISODIY SAMARADORLIGI (2015-2025-YILLAR TAHLILI)	1667
Hayitov Jamshid Xolboyevich	
SUG'URTA XIZMATLARI HAJMINI EKONOMETRIK BAHOLASH	1671
Ismoilov Sherzod Ismoil o'g'li	
BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARIGA ERISHISHDA TURIZMNING MINTAQAVIY RIVOJLANISHDAGI O'RNI VA STATISTIK MONITORING TIZIMI	1675
Q.A. Musaxanov	
SANOAT KORXONALARIDA MAHSULOT TANNARXINI KAMAYTIRISH YO'LLARI	1679
Ulashev Xubbim	
BANKLARDA YASHIL DEPOZITLAR TIZIMINI RIVOJLANTIRISHNING DAVLAT MOLIYA SIYOSATIDAGI O'RNI	1684
PhD. Maxmudov Rahimjon Hamid o'g'li	
TIJORAT BANKLARINING INVESTITSION FAOLLIGINI OSHIRISHGA TA'SIR ETUVCHI OMILLARNING EKONOMETRIK TAHLILI	1695
Dagarov Bekzod Muzaffar o'g'li	



TIJORAT BANKLARINING INVESTITSION FAOLLIGINI OSHIRISHGA TA'SIR ETUVCHI OMILLARNING EKONOMETRIK TAHLILI

Dagarov Bekzod Muzaffar o'g'li
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Mustaqil izlanuvchisi, PhD

Annotatsiya: Maqola tijorat banklarining investitsion faolligini oshirishga ta'sir etuvchi omillarning ekonometrik tahliliga bag'ishlangan. Unda banklarning investitsion faoliyatiga ta'sir ko'rsatuvchi asosiy makroiqtisodiy va mikroiqtisodiy omillar, jumladan, foiz stavkalari, inflyatsiya darajasi, bank kapitali yetarliligi, likvidlik darajasi va kredit portfeli holati o'rganilgan. Ekonometrik modellar yordamida ushbu omillarning investitsion faollikka ta'siri baholanib, ularning o'zaro bog'liqligi aniqlangan.

Kalit so'zlar: tijorat banklari, investitsiya, investitsion faoliyat, investitsion faollik, ekonometrik tahlil, ekonometrik model, regressiya tahlili, korrelyatsiya, dispersiya, elastiklik, makroiqtisodiy omillar, mikroiqtisodiy omillar, foiz stavkalari, inflyatsiya darajasi.

Аннотация: Данное исследование посвящено эконометрическому анализу факторов, влияющих на рост инвестиционной активности коммерческих банков. В нем изучаются основные макроэкономические и микроэкономические факторы, влияющие на инвестиционную активность банков, включая процентные ставки, темпы инфляции, достаточность капитала банка, уровень ликвидности и состояние кредитного портфеля. С помощью эконометрических моделей была оценена степень влияния этих факторов на инвестиционную активность и выявлены их взаимосвязи.

Ключевые слова: коммерческие банки, инвестиции, инвестиционная активность, эконометрический анализ, эконометрическая модель, регрессионный анализ, корреляция, дисперсия, эластичность, макроэкономические факторы, микроэкономические факторы, процентные ставки, темпы инфляции.

Abstract: This study is devoted to the econometric analysis of factors influencing the increase in the investment activity of commercial banks. It studies the main macroeconomic and microeconomic factors influencing the investment activity of banks, including interest rates, inflation rate, bank capital adequacy, liquidity level and credit portfolio status. Using econometric models, the impact of these factors on investment activity was assessed and their interrelationships were identified.

Keywords: commercial banks, investment, investment activity, investment activity, econometric analysis, econometric model, regression analysis, correlation, dispersion, elasticity, macroeconomic factors, microeconomic factors, interest rates, inflation rate.

KIRISH

Milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta'minlashda tijorat banklarining investitsion faolligi muhim omillardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Xususan, kapital bozorining rivojlanish darajasi, moliyaviy resurslarning diversifikatsiyalashuvi hamda banklarning qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalaridagi ishtiroki iqtisodiy o'sishni rag'batlantiruvchi asosiy mexanizmlardan hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan, tijorat banklarining investitsion faoliyatini kengaytirish va uning samaradorligini oshirish masalasi dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Tijorat banklarining investitsion faolligini oshirish masalasi moliyaviy vositachilik, kapital bozorlarining rivojlanishi, bank faoliyatini tartibga solish hamda investitsiya qarorlarining institutsional asoslari bilan bevosita bog'liqdir. Allen va Gale 1997-yilda moliyaviy bozorlar hamda vositachilarning iqtisodiyotda resurslarni vaqtlararo taqsimlashdagi rolini tahlil qilib, banklar nafaqat qisqa muddatli likvidlikni ta'minlovchi,



balki uzoq muddatli investitsion jarayonlarni barqarorlashtiruvchi muhim institut ekanligini asoslab bergan. Ularning yondashuvida banklar moliyaviy resurslarni jamg'aruvchilardan investitsiya talab qiluvchi subyektlarga yo'naltirish orqali iqtisodiy sikllar ta'sirini yumshatadi va kapitalning samarali taqsimlanishiga xizmat qiladi. Bu qarash tijorat banklarining investitsion faolligini baholashda aktivlar tarkibi, qimmatli qog'ozlarga yo'naltirilgan mablag'lar ulushi va moliyaviy barqarorlik omillarini birgalikda tahlil qilish zarurligini ko'rsatadi.

Barth, Nolle va Rice 1997-yilda tijorat banklari tuzilmasi, tartibga solish mexanizmlari hamda bank faoliyati samaradorligini xalqaro miqyosda qiyosiy o'rgangan. Ularning tadqiqotida bank tizimining institutsional muhiti, nazorat talablari, kapital yetariligi va bozor raqobati banklarning moliyaviy natijalari hamda investitsion imkoniyatlariga sezilarli ta'sir ko'rsatishi ta'kidlanadi. Mazkur yondashuv tijorat banklarining investitsion faolligiga ta'sir etuvchi omillarni faqat ichki moliyaviy ko'rsatkichlar bilan emas, balki tartibga solish sifati, bank sektoridagi raqobat darajasi va moliyaviy infratuzilma rivojlanganligi bilan bog'liq holda o'rganish lozimligini anglatadi.

Puri 1996-yilda tijorat banklarining investitsiya bankchiligi faoliyatidagi ishtirokini tahlil qilib, bu jarayonda manfaatlar to'qnashuvi ehtimoli bilan bir qatorda banklarning "sertifikatlash" roli ham mavjudligini asoslab bergan. Tadqiqotga ko'ra, tijorat banklari mijozlar haqida kengroq axborotga ega bo'lgani sababli investitsiya qarorlarida axborot assimetriasini kamaytirishi mumkin. Bu holat banklarning qimmatli qog'ozlar bozori, korporativ moliyalashtirish va investitsiya loyihalaridagi ishtirokini kuchaytiruvchi muhim omil sifatida baholanadi. Shu jihatdan, tijorat banklarining investitsion faolligini ekonometrik tahlil qilishda axborot ustunligi, mijozlar bazasi, kredit portfeli sifati va risklarni baholash imkoniyatlari alohida ahamiyat kasb etadi.

Morrison va Wilhelm 2007-yilda investitsiya bankchiligining tarixiy rivojlanishi, hozirgi holati va istiqbollarni tahlil qilib, moliyaviy institutlarning investitsiya jarayonlaridagi o'rni tobora murakkablashib borayotganini ko'rsatgan. Ularning fikricha, kapital bozorlarining chuqurlashuvi, moliyaviy innovatsiyalar va korporativ moliyalashtirish vositalarining kengayishi banklardan yangi kompetensiyalarni talab qiladi. Bu yondashuv tijorat banklarining investitsion faolligi nafaqat mavjud aktivlar hajmi yoki likvidlik darajasiga, balki banklarning bozor tahlili, risk-menejment, investitsiya portfelini boshqarish va uzoq muddatli strategik rejalashtirish salohiyatiga ham bog'liq ekanligini ko'rsatadi.

Thirumalai va Uthaya Chandar 2014-yilda tijorat banklarining investitsiya siyosatini o'rganib, bank investitsiyalarini shakllantirishda xavfsizlik, likvidlik va daromadlilik tamoyillari muhim o'rin tutishini qayd etgan. Ularning tadqiqotida investitsiya siyosati bank aktivlarini samarali joylashtirish, risklarni diversifikatsiya qilish va daromad manbalarini kengaytirishning asosiy vositasi sifatida talqin qilinadi. Mazkur ilmiy qarash tijorat banklarining investitsion faolligiga ta'sir etuvchi omillarni ekonometrik baholashda depozit bazasi, kapital yetariligi, likvidlik ko'rsatkichlari, kreditlash hajmi, qimmatli qog'ozlar portfeli va foiz daromadlari kabi ko'rsatkichlardan foydalanish maqsadga muvofiqligini asoslaydi.

Umuman olganda, tahlil qilingan adabiyotlar tijorat banklarining investitsion faolligi ko'p omilli iqtisodiy jarayon ekanligini ko'rsatadi. Ushbu jarayonga moliyaviy vositachilik sifati, bank tizimining tartibga solinishi, kapital bozori rivojlanishi, axborot assimetriasining kamayishi, investitsiya siyosati, likvidlik va risklarni boshqarish mexanizmlari bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli mazkur mavzuni ekonometrik tahlil qilishda bank aktivlari tarkibi, qimmatli qog'ozlarga investitsiyalar ulushi, kapital yetariligi, likvidlik darajasi, depozit bazasi va bozor omillarini kompleks baholash ilmiy jihatdan asosli hisoblanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda tijorat banklarining moliyaviy hisobotlari, Markaziy bank statistik ma'lumotlari hamda ochiq manbalardan olingan makroiqtisodiy ko'rsatkichlar bazasi shakllantirildi. Ma'lumotlar panel ko'rinishida jamlanib, korrelyatsion va regressiya tahlillari asosida omillar o'rtasidagi bog'liqlik baholandi, model parametrlarining statistik ahamiyati va adekvatligi ekonometrik testlar orqali tekshirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot doirasida tijorat banklarining investitsion faolligiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash maqsadida ekonometrik tahlil amalga oshirildi. Xususan, bank aktivlarida "investitsiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlar" ulushi bog'liq o'zgaruvchi sifatida olinib, unga ta'sir ko'rsatuvchi makro hamda mikro darajadagi turli xil omillar tanlab olindi (1-jadval).



1-jadval

O'zbekiston Respublikasida tijorat banklarining investitsion faolligiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar tarkibi¹

Yillar	Investitsiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlar ulushi	Kapital yetarliligi ko'rsatkichi, foizda	Fond bozori kapitallashuvining YalMdagi ulushi (%)	Qimmatli qog'ozlar savdosi hajmi (mild.so'm)	Aholi jon boshiga YalM (ming so'mda)	Inflyatsiya darajasi (foiz)	Asosiy stavka (foiz)	Banklar tomonidan jalb qilingan dipozit qoldiqlari (mild. so'm)	Banklar tomonidan berilgan kredit qoldiqlari (mild. so'm)
2014	0.4	23.5	3.9	1,327.00	6,860.00	6.1	10.0	27,800.00	34,800.00
2015	0.6	24	4.0	3,508.00	8,004.90	5.6	9.0	35,600.00	42,685.00
2016	0.8	24.6	3.3	14,460.00	9,112.50	5.7	9.0	36,341.00	52,045.00
2017	0.9	23.8	4.9	22,247.00	11,411.80	14.4	14.0	58,668.00	108,467.00
2018	1.0	23.3	5.3	10,710.00	15,014.40	14.3	16.0	70,001.00	164,670.00
2019	1.1	15.6	10.2	37,681.00	18,465.60	15.2	16.0	91,009.00	207,646.00
2020	1.2	20.9	8.2	63,865.00	20,596.90	11.1	14.0	114,747.00	276,975.00
2021	2.6	17.8	6.8	15,766.10	24,664.70	10.0	14.0	156,190.00	326,386.00
2022	4.4	16.9	9.5	19,568.10	29,226.70	12.3	15.0	216,738.00	390,049.00
2023	5.7	16.7	14.1	46,858.20	34,653.20	8.8	14.0	241,687.00	471,406.00
2024	7.8	17.5	16.7	43,035.68	41,306.70	9.8	13.5	308,692.00	533,121.00
2025	10.2	17.4	15.4	58,303.00	48,816.40	7.3	14.0	417,258.20	604,002.20

Yuqorida tanlab olingan omillarni batafsil tahlil qilish uchun STATA 17 dasturidan foydalanamiz. Buning uchun avvalo ko'rsatkichlarni maxsus kodlar orqali ifodalab, qisqartirib olish zarur. Sababi keyingi bosqichlarda tahlillarni amalga oshirishda qiyinchiliklar yuzaga kelishi mumkin. Buning uchun ko'rsatkichlarni maxsus kodlar yordamida ifodalash maqsadga muvofiq sanaladi. Endi esa navbatdagi bosqichda yuqoridagi ko'rsatkichlarni tavsifiy statistikasi yordamida batafsil tahlil qilamiz (2-jadval).

2-jadval

O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarining investitsion faolligiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarga oid ma'lumotlarning tavsifiy statistikasi²

Variable	Obs	Mean	Std. Dev.	Min	Max
Years	12	2019.5	3.606	2014	2025
inv sec share	12	3.058	3.26	.4	10.2
car	12	20.167	3.476	15.6	24.6
mcap gdp	12	8.525	4.717	3.3	16.7
sec trade	12	28110.757	21164.492	1327	63865
gdp pc	12	22344.483	13739.17	6860	48816.4
infl	12	10.05	3.48	5.6	15.2
policy rate	12	13.208	2.481	9	16
deposits	12	147894.27	124264.5	27800	417258.2
loans	12	267687.68	198746.3	34800	604002.2


1 cbu.uz sayt ma'lumotlaridan foydalangan holda tadqiqotchi tomonidan tuzildi.

2 STATA 17 dasturida muallif tomonidan tayyorlandi.

Yuqorida keltirilgan jadvalda ma'lumotlar 12 yillik kuzatuvlarni o'zida aks ettirgan bo'lib, tijorat banklarining investitsion faolligiga ta'sir etuvchi asosiy makroiqtisodiy va moliyaviy ko'rsatkichlarni o'z ichiga oladi. Ushbu davr bo'yicha o'zgaruvchilarning o'rtacha qiymati, dispersiyasi hamda minimal va maksimal chegaralari tahlil qilinib, ularning iqtisodiy mazmuni ochib berildi. Avvalo, bog'liq o'zgaruvchi hisoblangan "investitsiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlar ulushi" o'rtacha 3,06 foizni tashkil etib, minimal qiymati 0,4 foiz va maksimal qiymati 10,2 foizga teng. Standart og'ishning nisbatan yuqoriligi ushbu ko'rsatkichda sezilarli o'zgaruvchanlik mavjudligini bildiradi. Bu esa banklar investitsion faoliyatining tahlil davrida bosqichma-bosqich rivojlanganligini va ayniqsa so'nggi yillarda keskin o'sish kuzatilganligini anglatadi.

Qimmatli qog'ozlar savdosi hajmi o'rtacha 28 110 mlrd so'mni tashkil etib, juda yuqori dispersiya bilan ajralib turadi. Bu ko'rsatkichning 1 327 mlrd so'mdan 63 865 mlrd so'mgacha keskin o'zgarishi fond bozori likvidligining vaqt o'tishi bilan sezilarli darajada oshganligini bildiradi. Aholi jon boshiga YaIM o'rtacha 22 344 ming so'mni tashkil etib, iqtisodiy o'sish jarayonlari natijasida minimal 6 860 ming so'mdan maksimal 48 816 ming so'mgacha oshgan. Yuqori standart og'ish mamlakat iqtisodiy rivojlanish sur'atlarining sezilarli darajada ortganligini ko'rsatadi. Makroiqtisodiy barqarorlikni ifodalovchi inflyatsiya darajasi o'rtacha 10,05 foizni tashkil etib, 5,6 foizdan 15,2 foizgacha o'zgaradi. Bu ko'rsatkichdagi o'zgaruvchanlik moliyaviy bozorlarda noaniqlik darajasining mavjudligini bildiradi. Shu bilan birga, asosiy stavka o'rtacha 13,2 foizni tashkil etib, 9 foizdan 16 foizgacha diapazonda shakllangan bo'lib, bu banklar uchun alternativ investitsiya yo'nalishlarini tanlashda muhim rol o'ynaydi.

Bank tizimining resurs bazasi sifatida qaraluvchi depozitlar hajmi o'rtacha 147 894 mlrd so'mni, kreditlar hajmi esa 267 687 mlrd so'mni tashkil etadi. Har ikkala ko'rsatkich bo'yicha yuqori standart og'ish ularning tez sur'atlarda o'sib borganligini bildiradi. Kreditlar hajmining depozitlarga nisbatan yuqoriligi banklar faoliyatida kreditlashning ustuvor yo'nalish ekanligini ko'rsatadi. Fikrimizcha, tahlil davrida bank tizimi va kapital bozori ko'rsatkichlarida sezilarli o'sish va o'zgaruvchanlik kuzatilgan. Ayniqsa, investitsiyalar ulushi, fond bozori kapitallashuvi va savdo hajmining ortishi banklarning investitsion faolligi oshib borayotganligini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, kreditlash faoliyatining yuqori darajada saqlanib qolishi bank aktivlari tarkibida muhim strukturaviy omil sifatida namoyon bo'lmoqda. Navbatdagi rasmda esa tadqiqotda foydalanilgan ko'rsatkichlarning kvartil taqsimoti hamda undagi ekstremal qiymatlar vizual tarzda tahlil qilish uchun keltirilgan (1-rasm).



1-rasm. Tadqiqotda foydalanilgan asosiy ko'rsatkichlarning kvartil taqsimoti va ekstremal qiymatlari (box-plot asosida)³

Yuqoridagi rasmdagi boxplot grafiklar tahlil qilinayotgan o'zgaruvchilarning taqsimlanish xususiyatlari, markaziy tendensiyasi va o'zgaruvchanlik darajasi haqida dastlabki tasavvur beradi. Chapdagi rasmda avvalo, kapital yetarililigi ko'rsatkichi eng yuqori darajada joylashgani ko'rinadi. Uning median qiymati taxminan 19–20 foiz oralig'ida bo'lib, bu tijorat banklari tizimida kapital zaxiralari yetarli darajada shakllanganini anglatadi. Shu bilan birga, interkvartil oraliqning nisbatan torligi mazkur ko'rsatkichning tahlil davrida keskin tebranmaganini, ya'ni bank tizimi kapital pozitsiyasi nisbatan barqaror bo'lganini ko'rsatadi. Asosiy stavka bo'yicha boxplot nisbatan barqaror dinamikani aks ettiradi. Median qiymatning 14 foiz atrofida shakllanishi hamda umumiy diapa-

3 STATA 17 dasturida muallif tomonidan tayyorlandi.



zoning 10 foizdan 16 foizgacha bo'lishi Markaziy bankning pul-kredit siyosati mazkur davrda qat'iy va mo'tadil cheklovchi xususiyatga ega bo'lganini anglatadi. Inflyatsiya darajasi bo'yicha boxplotda median qiymatning 10 foiz atrofida joylashgani, biroq 5 foizdan 15 foizgacha cho'zilgani ushbu ko'rsatkichning nisbatan o'zgaruvchan ekanini ko'rsatadi. Bu esa makroiqtisodiy muhitda ma'lum darajada beqarorlik va narxlar darajasida sezilarli tebranishlar mavjud bo'lganini anglatadi. Fond bozori kapitallashuvining YaIMga nisbati bo'yicha grafikdagi keng tarqalish alohida e'tiborga loyiq. Ko'rsatkichning taxminan 5 foizdan 17 foizgacha bo'lgan oralig'ida o'zgarishi kapital bozorining tahlil davrida bir maromda emas, balki bosqichma-bosqich rivojlanganini ko'rsatadi. Interkvartil oralig'ining kengligi fond bozorida sezilarli strukturaviy siljishlar yuz berganidan dalolat beradi. Fikrimizcha, yurtimiz kapital bozori ayrim yillarda ancha faollashgan, ba'zi yillarda esa nisbatan sust bo'lgan. Mazkur ko'rsatkichning o'sib borishi, odatda, banklarning qimmatli qog'ozlarga sarmoya kiritish imkoniyatlarini kengaytiradi, chunki bozor chuqurligi va emitentlar soni ortadi, likvidlik yaxshilanadi va investitsiya uchun instrumentlar ko'payadi.

Qimmatli qog'ozlar savdosi hajmi esa depozitlar va kreditlarga nisbatan ancha past darajada joylashgan. Bu ko'rsatkichning boxplotdagi past pozitsiyasi va nisbatan torroq ko'lami yurtimiz moliya bozorida qimmatli qog'ozlar savdosining bank kreditlash sektori bilan taqqoslaganda hali yetarli darajada chuqurlashmaganini ko'rsatadi. Endi esa navbatdagi bosqichda natijaviy omilga ta'sir etuvchi omillarni bir-biriga aloqasini aniqlab olamiz (3-jadval).


3-jadval
Ko'rsatkichlar korrelatsiya jadvali⁴

Variables	(1)	(2)	(3)	(4)	(5)	(6)	(7)	(8)	(9)
(1) inv_sec_share	1.000								
(2) car	-0.641	1.000							
(3) mcap_gdp	0.897	-0.811	1.000						
(4) sec_trade	0.601	-0.579	0.761	1.000					
(5) gdp_pc	0.965	-0.773	0.942	0.708	1.000				
(6) infl	-0.160	-0.284	0.079	0.164	0.008	1.000			
(7) policy_rate	0.283	-0.627	0.474	0.462	0.466	0.853	1.000		
(8) deposits	0.987	-0.716	0.912	0.665	0.990	-0.070	0.389	1.000	
(9) loans	0.933	-0.802	0.937	0.721	0.993	0.060	0.516	0.971	1.000

Yuqorida keltirilgan korrelyatsiya matritsasi asosida o'zgaruvchilar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni tahlil qilish tijorat banklarining qimmatli qog'ozlarga investitsion faolligini shakllantiruvchi omillarni aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, bog'liq o'zgaruvchi hisoblangan "investitsiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlar ulushi" bir qator makroiqtisodiy va moliyaviy ko'rsatkichlar bilan sezilarli darajada bog'langan. Avvalo, "inv_sec_share" ko'rsatkichi bilan depozitlar, aholi jon boshiga YaIM hamda kreditlar o'rtasida juda kuchli ijobiy bog'liqlik kuzatiladi. Fikrimizcha, bu natija banklar resurs bazasining kengayishi va iqtisodiy o'sish jarayonlari bilan bir qatorda investitsion faoliyat ham ortib borayotganini anglatadi. Xususan, depozitlar hajmining oshishi banklarning moliyaviy resurslarini kengaytirib, ularning qimmatli qog'ozlarga yo'naltiriladigan mablag'larini ko'paytirish imkonini beradi. Shu bilan birga, aholi daromadlarining oshishi umumiy iqtisodiy faollikni kuchaytirib, kapital bozorining rivojlanishiga va natijada banklarning investitsion operatsiyalariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.


Kapital yetarliligi ko'rsatkichi bilan natijaviy omil o'rtasida o'rtacha salbiy bog'liqlik mavjud. Fikrimizcha, bu holat kapital darajasi yuqori bo'lgan banklar ehtiyotkorroq siyosat yuritib, riskliroq hisoblangan qimmatli qog'ozlarga kamroq investitsiya qilishini anglatishi mumkin. Ya'ni yuqori kapital yetarliligi ba'zi hollarda konservativ aktiv joylashtirish strategiyasi bilan bog'liq bo'ladi. Bundan tashqari, korrelyatsiya matritsasi-da mustaqil o'zgaruvchilar o'rtasida ham juda yuqori bog'liqlik mavjudligi aniqlangan. Xususan, aholi jon boshiga YaIM bilan kreditlar, depozitlar, shuningdek, depozitlar bilan kreditlar o'rtasida deyarli mukammal ijobiy korrelyatsiya mavjud. Bu esa regressiya modelini tuzishda multikollinearlik muammosi yuzaga kelishi mumkinligini ko'rsatadi. Bunday holatda o'zgaruvchilarni ehtiyotkorlik bilan tanlash yoki alternativ modellar tuzish zarur hisoblanadi. Multikollinearlik muammosini aniqlashning yana bir muhim usuli navbatdagi rasmda keltirilgan (2-rasm).

4 STATA 17 dasturida muallif tomonidan tayyorlandi.



2-rasm. Nuqtali diagrammalar matritsasi⁵

Grafik tahlili shuni ko'rsatadiki, iqtisodiy va moliyaviy ko'rsatkichlar o'rtasida bir nechta aniq va kuchli bog'liqliklar mavjud bo'lib, ular O'zbekiston iqtisodiyotida moliyaviy tizimning tarkibiy xususiyatlarini ochib beradi. Rasmdan ko'rinib turibdiki, o'zgaruvchilar o'rtasidagi bog'liqliklar asosan chiziqli shaklga yaqin, biroq ayrim hollarda tarqoqlik mavjud. Bu esa regressiya modelidan foydalanish mumkinligini, lekin ayrim o'zgaruvchilar uchun bog'liqlik kuchi turlicha ekanligini bildiradi. Shuningdek, boshqa juftliklarda nuqtalar nisbatan tarqoq bo'lib, bu bog'liqlikning zaif yoki o'rtacha ekanligini ko'rsatadi. Navbatdagi bosqichga o'tishdan avval biz tahlil qilayotgan ko'rsatkichlar o'rtasida multikollinearlik muammosi mavjud emasligiga amin bo'lishimiz zarur. Biroq shuni aytish joizki, biz tahlil qilgan omillarning aksariyati bir-birini takrorlovchi omil sifatida namoyon bo'lganligi uchun natijaviy omilga ta'sir ko'rsatadigan omil sifatida qolgan o'zgaruvchilar o'rnini bosishi mumkin bo'lgan omil tanlab olindi hamda ko'rsatkichlar logarifmik ko'rinishga keltirildi (3-rasm).



3-rasm. Natijaviy hamda ta'sir ko'rsatuvchi omillar o'rtasidagi chiziqli regressiya modeli⁶ (95% ishonch oralig'i bilan)

Yuqoridagi regressiya grafiklari logarifmlangan ko'rinishdagi ikki muhim o'zgaruvchi, ya'ni fond bozori kapitallashuvining YaIMdagi ulushi va tijorat banklari aktivlarida investitsiyalar hamda boshqa qimmatli qog'ozlar ulushi o'rtasidagi bog'liqlikni vizual tarzda ifodalaydi. Avvalo, rasmlarda gorizontol o'qda "lnmcap_gdp", ya'ni fond bozori kapitallashuvining YaIMga nisbatan ulushining natural logarifmi joylashgan. Mazkur ko'rsatkich moliya bozorining chuqurligi va rivojlanish darajasini ifodalaydi. Vertikal o'qda esa "lninv_sec_share", ya'ni tijorat banklari aktivlarida investitsiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlar ulushining natural logarifmi keltirilgan.

5 STATA 17 dasturida muallif tomonidan tayyorlandi.

6 STATA 17 dasturida muallif tomonidan tayyorlandi.



Bu ko'rsatkich banklarning investitsion faolligi darajasini, xususan kreditlashdan tashqari moliyaviy instrumentlarga yo'naltirilayotgan aktivlar ulushini aks ettiradi. O'zbekiston sharoitida uzoq vaqt davomida banklar asosan kreditlash faoliyatiga tayangan bo'lsa-da, fond bozori kapitallashuvining oshishi bilan bank aktivlari tarkibida investitsiyalar ulushining ko'tarilishi moliyaviy vositachilik tizimida diversifikatsiya jarayonlari boshlanganini bildiradi. Navbatdagi faraz — qoldiqlar normal taqsimlangan bo'lishi kerak. Buni aniqlashning usuli hamda natijalari quyidagi jadvalda keltirilgan (4-jadval).

4-jadval
Qoldiqlar normal taqsimoti testi⁷

Variables	Obs	Mean	Std. Dev.	Min	Max	p1	p99	Skew.	Kurt.
res	12	0	.489	-1.043	.554	-1.043	.554	-.728	2.756

Jadvalda qurilgan regressiya modelining qoldiqlari bo'yicha statistik ko'rsatkichlar keltirilgan. Umumiy kuzatuvlar soni 12 tani tashkil etadi. Avvalo, qoldiqlarning o'rtacha qiymati 0 ga teng bo'lib, bu regressiya modeli to'g'ri qurilganligini va sistematik xatolik mavjud emasligini bildiradi. Standart og'ish (0,489) nisbatan kichik bo'lib, qoldiqlar tarqalishi o'rtacha darajada barqaror ekanini ko'rsatadi. Minimal qiymat -1,043, maksimal qiymat esa 0,554 bo'lib, ular orasidagi farq katta emas. Shuningdek, jadvalda berilgan p1 va p99 percentillar (-1,043 va 0,554) qoldiqlar tarqalishi chegarasini aniq belgilab beradi. Bu qiymatlar qoldiqlar ekstremal og'ishlarga ega emasligini ko'rsatadi.

Shakl ko'rsatkichlariga e'tibor qaratsa, skewness -0,728 bo'lib, qoldiqlar taqsimoti biroz chapga og'ganini bildiradi. Bu esa qoldiqlarning asosiy qismi musbat tomonda ko'proq to'planganini ko'rsatadi. Kurtosis esa 2,756 bo'lib, u normal taqsimotdan biroz past. Demak, qoldiqlar taqsimoti deyarli normal bo'lib, model uchun statistik jihatdan maqbul hisoblanadi. Xulosa sifatida aytish mumkinki, mazkur tahlil natijalari regressiya modelida qoldiqlarning normal taqsimotga yaqin ekanligini tasdiqlaydi. Endi esa navbatdagi farazni, ya'ni geteroskedastiklik bo'lmasligi kerak degan farazni tekshiramiz. Geteroskedastiklik muammosini aniqlashda rasmiy testlardan foydalaniladi. Shulardan biri Broysh–Pagan testidir (5-jadval).

5-jadval
Geteroskadastiklik testi⁸

Cameron & Trivedi's decomposition of IM-test	ch ²	df	p-value
Heteroskedasticity	1.270	2	0.5307
Skewness	2.910	1	0.0883
Kurtosis	0.090	1	0.7600
Combined test	4.270	4	0.3713

Test natijalariga ko'ra, qurilgan regressiya modelining qoldiqlari statistik jihatdan barqaror va normal taqsimotga yaqin ekanligi tasdiqlandi. Xususan, heteroskedastiklik testi $\chi^2 = 1.27$, df = 2, p = 0.5307 natija bergan bo'lib, p-qiymatning 0.05 dan katta chiqishi qoldiqlarda geteroskedastiklik mavjud emasligini, ularning dispersiyasi barqaror ekanini ko'rsatadi. Skewness testi $\chi^2 = 2.91$, df = 1, p = 0.08 qiymatni qayd etdi va bu qoldiqlar taqsimotida og'ish muammosi mavjud emasligini tasdiqladi. Kurtosis testi $\chi^2 = 0.09$, df = 1, p = 0.760 natijani berdi, bu esa qoldiqlar cho'qqiligi normal taqsimotdan farq qilmasligini ko'rsatadi. Yakuniy umumiy test $\chi^2 = 4.27$, df = 4, p = 0.371 ko'rsatkichiga ega bo'lib, p-qiymatning 0.05 dan katta chiqishi model qoldiqlarining umumiy holda normal taqsimotga yaqin va yaxshi statistik xususiyatlarga ega ekanini bildiradi. Shu bois, tanlangan model natijalari ishonchli hisoblanadi va keyingi tahlillar uchun mustahkam asos bo'lib xizmat qiladi.

Navbatdagi faraz: xatoliklar bir-biri bilan o'zaro bog'lanmagan bo'lishi kerak, ya'ni avtokorrelyatsiya bo'lmasligi kerak. Avtokorrelyatsiya bu modeldagi xatoliklar o'zaro bog'liq bo'lgan holatdir. Ya'ni, bir kuzatuvdagi xatolik boshqa kuzatuvdagi xatolikni oldindan belgilab berayotgan bo'ladi. Agar standart xatolar noto'g'ri bo'lsa, t-statistik va p-value ishonchsiz bo'ladi. Agar avtokorrelyatsiya muammosi mavjud bo'lgan taqdirda, uni yechishning quyidagi usuli mavjud (6-jadval).

7 STATA 17 dasturida muallif tomonidan tayyorlandi.

8 STATA 17 dasturida muallif tomonidan tayyorlandi.

6-jadval
Durbinning alternativ testi natijalari⁹

Durbin's alternative test for autocorrelation χ^2	df	Prob>Chi ²
0.645	1	0.4219
H_0 : no serial correlation		

Jadval natijalariga ko'ra, test statistikasi $\chi^2 = 0.645$, erkinlik darajasi va unga mos ravishda p-qiyamat = 0.4219 ni tashkil etadi¹⁰. Testning nol gipotezasi quyidagicha shakllantiriladi: model qoldiqlarida avtokorrelatsiya mavjud emas. Yuqoridagi holatda p-qiyamat, ya'ni nol gipotezani rad etish uchun yetarli asos mavjud emas. Demak, model qoldiqlari o'rtasida avtokorrelatsiya mavjud emas degan xulosaga kelinadi. Bu esa modelning muhim shartlaridan biri — xatoliklarning o'zaro bog'liq emasligi — bajarilganligini bildiradi.

Demak, juft omilli ekonometrik modelga kiritiladigan omillar bo'yicha xulosa qiladigan bo'lsak, xususiy korrelyatsiya koeffitsiyentlari ishonchli va yuqori bog'lanish mavjudligini ko'rsatmoqda. Shunday qilib, natijaviy omil va unga ta'sir etuvchi omil bo'yicha juft omilli ekonometrik model tuzamiz. Ushbu juft omilli ekonometrik model quyidagi ko'rinishga ega:

bu yerda: – natijaviy omil, – ta'sir etuvchi omil, – tasodifiy xato.

Juft omilli ekonometrik modeldagi noma'lum β_0 , β_1 , parametrlarning qiymatlarini aniqlashda "Eng kichik kvadratlar usuli" dan foydalandik. Natijalar quyidagi jadvalda keltirilgan (7-jadval):

7-jadval
Ko'rsatkichlar regression tahlili¹¹

Ininv_sec_share	Coef.	St.Err.	t-value	p-value	[95% Conf Interval]	Sig
lnmcap_gdp	1.698	.274	6.20	0	1.088 2.307	***
Constant -2.804		.567	-4.95	.001	-4.067 -1.541	***
Mean dependent var	0.590		SD dependent var	1.078		
R-squared	0.794		Number of obs	12		
F-test	38.499		Prob > F	0.000		
Akaike crit. (AIC)	19.864		Bayesian crit. (BIC)	20.834		
*** p<.01, ** p<.05, * p<.1						

Yuqoridagi jadval ma'lumotlaridan foydalanib, tijorat banklarining qimmatli qog'ozlarga yo'naltirgan investitsiyalari ko'rsatkichi (Y) bo'yicha hisoblangan juft omilli ekonometrik modelni analitik ko'rinishda quyidagicha ifodalaymiz:

Regressiyaning alohida parametrlarining ahamiyatligini tekshirish regressiyaning har bir parametrini nola tengligi to'g'risidagi farazni tekshirish yo'li bilan Studentning t mezon bo'yicha amalga oshiriladi. Regressiya tenglamasining har bir parametrini ma'noga ega ekanligi to'g'risidagi faraz ekonometrikada gipoteza tekshiruvlari asosida amalga oshiriladi. Mazkur ekonometrik modelda bog'liq o'zgaruvchi sifatida tijorat banklari aktivlarida "investitsiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlar ulushi"ning logarifmik ko'rsatkichi, mustaqil o'zgaruvchi sifatida esa fond bozori kapitallashuvining YaIMga nisbati olingan. Model natijalari ushbu ikki ko'rsatkich o'rtasida kuchli va statistik jihatdan ahamiyatli bog'liqlik mavjudligini ko'rsatadi. Avvalo, "lnmcap_gdp" o'zgaruvchisining koeffitsiyenti 1,698 ga teng bo'lib, uning p-qiyamati 0,000 ni tashkil etadi. Bu esa mazkur o'zgaruvchi 1

9 STATA 17 dasturida muallif tomonidan tayyorlandi.


10 STATA 17 dasturida muallif tomonidan tayyorlandi.

11 STATA 17 dasturida muallif tomonidan tayyorlandi.



foizli ishonchlilik darajasida statistik ahamiyatga ega ekanligini bildiradi. Ya'ni fond bozori kapitallashuvi 1% ga oshganda, banklarning qimmatli qog'ozlarga investitsiya ulushi o'rtacha 1,7% ga oshadi. Fikrimizcha, bu natija banklarning investitsion faolligi kapital bozori rivojlanish darajasiga yuqori darajada sezgir ekanligini ko'rsatadi. Koeffitsiyentning 1 dan katta bo'lishi esa bog'liqlikning elastik emas, balki yuqori elastik xarakterga ega ekanini bildiradi. Ya'ni kapital bozori rivojlanishidagi nisbiy o'zgarishlar bank investitsiyalariga nisbatan kattaroq ta'sir ko'rsatadi. Modeldagi konstantaning manfiy va statistik jihatdan ahamiyatli bo'lishi fond bozori kapitallashuvi juda past darajada bo'lgan sharoitda banklarning investitsion ulushi ham past darajada shakllanishini bildiradi. Bu esa kapital bozori rivojlanishsiz banklar investitsion faoliyatini kengaytirish imkoniyatlari cheklanganligini tasdiqlaydi. Modelning umumiy sifati ham yuqori darajada baholanadi. Xususan, R-squared = 0,79 bo'lib, bu mustaqil o'zgaruvchi modeldagi bog'liq o'zgaruvchining 79 foiz o'zgarishini tushuntirib berishini anglatadi. Bu juda yuqori ko'rsatkich bo'lib, modelning yaxshi moslashganligini bildiradi. Shu bilan birga, F-statistika 38,499 va unga mos p-qiymat 0,000 bo'lib, model umumiy holda statistik jihatdan ahamiyatli ekanini tasdiqlaydi.

Endi esa eng muhim qismi sifatida aytishimiz mumkinki, tijorat banklarining investitsiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlar ulushining kelgusi yillar uchun prognoz qiymatlarini aniqlash lozim. Buning uchun bir nechta bosqich tahlillarni amalga oshiramiz (4-rasm).



4-rasm. 2014-2025-yillarda O'zbekiston Respublikasida tijorat banklarining investitsiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlar ulushining o'zgarish dinamikasi¹²

Yuqoridagi rasmda tijorat banklari aktivlarida qimmatli qog'ozlarga investitsiyalar ulushining natural logarifmlangan ko'rsatkichining 2014–2025-yillardagi dinamikasi aks ettiriladi. Ushbu vaqt qatori banklarning investitsion faolligi qanday bosqichlarda shakllanganini, o'sish sur'atlari qachon tezlashganini va qaysi davrda tarkibiy o'zgarishlar yuz berganini aniqlash imkonini beradi. Rasmning umumiy ko'rinishi shuni ko'rsatadiki, tahlil qilinayotgan davr davomida mazkur ko'rsatkich uzluksiz o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan, biroq bu o'sish barcha yillarda bir xil sur'atda kechmagan. Aksincha, vaqt qatori ikki asosiy bosqich va bitta muhim burilish nuqtasi bilan tavsiflanadi.

Rasmdan ko'rish mumkinki, 2014–2020-yillarda "lninv_sec_share" ko'rsatkichi manfiy qiymatlardan boshlanib, asta-sekin 0 nuqtasiga yaqinlashadi. Logarifmik ko'rinishda manfiy qiymatlarning mavjudligi shuni anglatadiki, dastlabki yillarda bank aktivlarida qimmatli qog'ozlarga investitsiyalar ulushi juda past bo'lgan. Biroq chiziqning izchil yuqoriga silljishi investitsion faoliyat muttasil oshib borganini ko'rsatadi. Bu davrda o'sish sur'ati mo'tadil va nisbatan tekis bo'lib, keskin sakrashlar kuzatilmaydi. Bunday holat banklar investitsion portfelining asta-sekin shakllanib borganini, lekin hali tizimda kreditlash ustuvor yo'nalish bo'lib qolganini anglatadi. Ya'ni, banklar qimmatli qog'ozlar bozoriga kirishni boshlagan bo'lsa-da, bu jarayon ehtiyotkor va bosqichma-bosqich kechgan. Fikrimizcha, mazkur davrda yurtimiz bank tizimi hali ko'proq an'anaviy moliyaviy vositachilik modeliga tayanib ishlagan.

12 STATA 17 dasturida muallif tomonidan tayyorlandi.



2020-yil grafikdagi burilish nuqtasi sifatida alohida ajralib turadi. Aynan shu yildan boshlab chiziqning qiyaligi ancha tiklashadi. Vaqt qatori tahlilida bunday holat odatda strukturaviy siljish sifatida talqin qilinadi (8-jadval).

8-jadval
Dickey-Fuller testi natijalari¹³

D2.						
Ininv_sec_share	Coefficient	Std. err.	t	P>t	[95% conf.	interval]
Ininv_sec_share						
LD.	-0.742	0.336	-2.210	0.058	-1.517	0.034
_cons						
	0.207	0.123	1.690	0.130	-0.076	0.489

Yuqorida keltirilgan natijalar vaqt qatori asosida qurilgan ekonometrik model orqali tijorat banklarining qimmatli qog'ozlarga investitsiya ulushi dinamikasini chuqurroq tahlil qilish imkonini beradi. Modelda bog'liq o'zgaruvchi sifatida "Ininv_sec_share", ya'ni investitsiyalar ulushining logarifmik ko'rsatkichi olinib, uning vaqt bo'yicha o'zgarishlari differensial shaklda baholangan. Bu yondashuv ko'rsatkichning stasionarligini ta'minlash va vaqtga bog'liq ichki dinamikani aniqlashda muhim metodologik ahamiyatga ega. Natijalarga ko'ra, "Ininv_sec_share" o'zgaruvchisining qiymati koeffitsiyenti -0,742 ga teng bo'lib, u manfiy ishoraga ega. Ushbu koeffitsiyentning t-statistikasi -2,21 ni, p-qiymati esa 0,058 ni tashkil etadi. Bu esa mazkur o'zgaruvchining 10 foizlik ishonchlilik darajasida statistik ahamiyatga ega ekanligini bildiradi. Manfiy koeffitsiyentning mavjudligi investitsiyalar ulushi dinamikasida teskari bog'liqlik mavjudligini ko'rsatadi, ya'ni oldingi davrdagi o'sish keyingi davrda nisbatan pasayish yoki sekinlashish bilan almashinadi (9-jadval).

9-jadval
ARIMA modeli asosidagi regressiya natijalari¹⁴

D.Ininv_sec_share	Coef.	St.Err.	t-value	p-value	[95% Conf	Interval]	Sig
Constant	.294	.083	3.55	0	.132	.457	***
Constant	.202	.054	3.74	0	.096	.307	***
Mean dependent var	0.294		SD dependent var	0.211			
Number of obs	11		Chi-square	.			
Prob > chi2	.		Akaike crit. (AIC)	-0.013			

*** p<.01, ** p<.05, * p<.1


Navbatdagi jadval natijalari vaqt qatori asosida qurilgan model orqali tijorat banklarining qimmatli qog'ozlarga investitsiya ulushi dinamikasini o'sish sur'atlari nuqtayi nazaridan baholash imkonini beradi. Modelda bog'liq o'zgaruvchi sifatida "D.Ininv_sec_share", ya'ni investitsiyalar ulushining logarifmik birinchi farqi olingan bo'lib, bu ko'rsatkich iqtisodiy mazmunda o'zgaruvchining nisbiy o'sish sur'atini ifodalaydi. Demak, model natijalari banklarning investitsion faolligi yilma-yil qanday tezlikda oshib borayotganini aniqlashga xizmat qiladi. Natijalarga ko'ra, modelda konstantaning qiymati mos ravishda 0,294 va 0,202 ga teng bo'lib, har ikkala baho ham statistik jihatdan yuqori darajada ahamiyatli. Bu shuni anglatadiki, investitsiyalar ulushining o'sish sur'ati nolga teng emas, balki ijobiy va barqaror xarakterga ega. Tijorat banklarining qimmatli qog'ozlarga investitsiya ulushi tahlil qilinayotgan davrda yiliga o'rtacha 20–30 foiz atrofida oshib borgan. Bu natija juda muhim bo'lib, investitsion faollik oddiy chiziq o'sish emas, balki nisbatan yuqori sur'atlarda kengayib borayotganini ko'rsatadi.

13 STATA 17 dasturida muallif tomonidan tayyorlandi.

14 STATA 17 dasturida muallif tomonidan tayyorlandi.




Ayniqsa, bu holat oldingi grafik va tavsifiy tahlillar bilan uyg'un holda talqin qilinganda, 2020-yildan keyingi davrda kuzatilgan keskin o'sish jarayoni statistik jihatdan tasdiqlanadi. Ya'ni banklar aktivlari tarkibida qimmatli qog'ozlarga investitsiyalar ulushi nafaqat oshib borgan, balki uning o'sish tezligi ham sezilarli darajada yuqori bo'lgan. Ushbu yondashuv yuqoridagi Dickey–Fuller testi natijalariga mos ravishda tanlangan bo'lib, ya'ni vaqt qatori stasionar holatga keltirilgandan keyin model qurilgan. Modelda barcha asosiy parametrlar statistik jihatdan ahamiyatli bo'lib, bu vaqt qatorining dinamikasi yaxshi ifodalanganini ko'rsatadi. Shuningdek, differensiallash orqali stasionarlikka erishilgan va model to'g'ri spetsifikatsiya qilingan (5-rasm).



5-rasm. ARIMA modeli asosida investitsiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlar ulushining prognozlar qoldiq dinamikasi (2014-2025-yy)¹⁵

Yuqoridagi rasmda ARIMA modeli asosida hisoblangan prognoz natijalarining qoldiqlari dinamikasi tasvirlangan. Ushbu grafik modelning adekvatligini baholashda muhim diagnostik vosita hisoblanadi, chunki ideal holatda qoldiqlar tasodifiy xususiyatga ega bo'lishi, ya'ni nol atrofida tartibsiz tebranishi lozim. Rasmdan ko'rinib turibdiki, qoldiqlar butun davr davomida nol chiziq atrofida tebranadi. Bu holat modelda tizimli xatoliklar mavjud emasligini va prognozlash jarayonida katta og'ishlar kuzatilmaganini anglatadi. Qoldiqlarning nol atrofida joylashuvi modelning umumiy jihatdan to'g'ri spetsifikatsiya qilinganini ko'rsatadi. Xulosa sifatida aytish mumkinki, ARIMA modeli asosida tuzilgan prognozlar umumiy tendensiyani to'g'ri aks ettiradi va qoldiqlar tasodifiy xarakterga ega (6-rasm).



6-rasm. ARIMA modeli asosida investitsiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlar ulushining prognoz dinamikasi (2026-2028 yy.)¹⁶

Navbatdagi rasmda ARIMA modeli asosida O'zbekiston Respublikasida tijorat banklari tomonidan investitsiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlar ulushining 2028-yilgacha prognoz dinamikasi tasvirlangan. Rasmdan ko'rinadiki, model tomonidan prognoz qilingan qiymatlar tarixiy trend bilan juda yuqori darajada mos keladi. Bu esa ARIMA modelining vaqt qatori dinamikasini yaxshi aks ettirayotganini, ya'ni o'sish tendensiyasini adek-

¹⁵ STATA 17 dasturida muallif tomonidan tayyorlandi.

¹⁶ STATA 17 dasturida muallif tomonidan tayyorlandi.



vat ifodalashini bildiradi. Prognoz natijalariga ko'ra, investitsiyalar hajmi uzluksiz o'sishda davom etadi. Rasmda bu holat qizil chiziqning yuqoriga yo'nalgan barqaror trayektoriyasi orqali ifodalangan. Ayniqsa, prognoz chizig'ining deyarli to'g'ri chiziqqa yaqin shaklda davom etishi investitsiyalar o'sishining nisbatan barqaror va bir maromda bo'lishini anglatadi. Bu esa vaqt qatori logarifmik shaklda bo'lganligi sababli, real iqtisodiy mazmunda investitsiyalar hajmi eksponensial o'sishda davom etishini bildiradi.

Prognozga ko'ra, 2028-yilga kelib "lninv_sec_share" ko'rsatkichi taxminan 3,2 atrofida bo'lishi kutilmoqda. Ya'ni qimmatli qog'ozlarga investitsiyalar ulushi shunchaki yildan-yilga ko'payib bormaydi, balki o'sish bazasi kattalashgani sari sur'atlar ham nisbatan tezlashib boradi. Prognoz iqtisodiy jihatdan optimistik xarakterga ega. Fikrimizcha, agar kapital bozori rivojlanishidagi ijobiy tendensiyalar saqlanib qolsa, banklar aktivlari tarkibida qimmatli qog'ozlarga investitsiyalar ulushi kelgusi yillarda ham izchil ortishda davom etadi. Bunday natija banklar faoliyatida investitsion operatsiyalarning roli kuchayib borishini, aktivlar tarkibining diversifikatsiyalashuvini va moliyaviy vositachilik tizimida kapital bozorining ahamiyati ortayotganini anglatadi (10-jadval).

10-jadval
O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari tomonidan investitsiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlar ulushining prognoz ko'rsatkichlari¹⁷

Yillar	Investitsiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlar ulushi	flninv_sec_share
2026-yil	13,69	2.616813
2027-yil	18,38	2.911238
2028-yil	24,67	3.205664

Yakuniy jadvalda keltirilgan prognoz natijalari tijorat banklarining aktivlarida "investitsiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlar ulushi"ning 2026–2028-yillarga mo'ljallangan istiqbol dinamikasini ifodalaydi. Prognoz natijalariga ko'ra, 2026-yilda investitsiyalar ulushi 13,69 foiz, 2027-yilda 18,38 foiz, 2028-yilda esa 24,67 foiz darajasiga yetishi kutilmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yakuniy jadvalda keltirilgan prognoz natijalari O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarining investitsiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlar ulushi kelgusi yillarda izchil o'sish tendensiyasiga ega ekanligini ko'rsatadi. Mazkur o'sish tendensiyasi banklarning qimmatli qog'ozlar bozorida ishtiroki kuchayishi, investitsion portfelni diversifikatsiya qilish siyosati hamda moliyaviy resurslardan samarali foydalanish darajasi ortishi bilan izohlanadi. Prognoz natijalari shuni ko'rsatadiki, tijorat banklari an'anaviy kreditlash faoliyatidan tashqari, qimmatli qog'ozlar va investitsiya instrumentlari orqali daromad manbalarini kengaytirishga intilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Allen, F., and G. Gale. "Financial Markets, Intermediaries and Intertemporal Smoothing". *Journal of Political Economy* 105 (1997), 523–546.
2. Barth, J.R., D.E. Nolle, and T.N. Rice. "Commercial Banking Structure, Regulation, and Performance: An International Comparison." *Comptroller of the Currency, Working Paper No. 7*, 1997.
3. K.S. Thirumalai and Uthaya Chandar (2014) *Investment Policy by Commercial Banks*, *Global Journal for Research Analysis*, Volume-3, Issue-11, Nov Special Issue -2014, ISSN No 2277 – 8160.
4. Morrison A.D., Wilhelm W.J. *Investment banking: Past, Present and Future*. *Journal of Applied Corporate Finance*. 2007;(1):42-54.
5. Puri, M. "Commercial Banks in Investment Banking: Conflict of Interest or Certification Role?" *Journal of Financial Economics* 40 (1996), 373–401.

17 STATA 17 dasturida muallif tomonidan tayyorlandi.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 3

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
